

DEVELOPMENT OF HEAVY INDUSTRIES IN THE SOUTHERN
PROVINCE OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS AND
CONSEQUENCES (1930-1960)

Mamatqulov Bekzod Sherozovich,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrası
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: bmamatqulovpmqarshi@gmail.com

ABSTRACT: *In this article, the development of heavy industries in the southern regions of Uzbekistan, conflicting situations in the process of training industry personnel are analyzed historically based on scientific sources.*

Keywords: *Industry, factory, plant, women, gas, chemistry, heavy industry, light industry, building materials, power stations, flour factories, food. textile, personnel policy, mining industry.*

РАЗВИТИЕ ТЯЖЕЛОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ЮЖНОЙ
ОБЛАСТИ УЗБЕКИСТАНА: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И
ПОСЛЕДСТВИЯ (1930-1960 ГГ.)

Аннотация: *В данной статье на основе научных источников исторически анализируются развитие тяжелой промышленности в южных регионах Узбекистана, конфликтные ситуации в процессе подготовки отраслевых кадров.*

Ключевые слова: *Промышленность, фабрика, завод, женщины, газ, химия, тяжелая промышленность, легкая промышленность, стройматериалы, электростанции, мукомольные заводы, пищевая промышленность. текстильная промышленность, кадровая политика, горнодобывающая промышленность.*

**O‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT
TARMOQLARINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAHLIL VA
OQIBATLAR (1930-1960 YY)**

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida og‘ir sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, sanoat sohasi kadrlari tayyorlash jarayonidagi ziddiyatli holatlar ilmiy manbalar asosida tarixiy tahlil etiladi.

***Kalit so‘zlar:** Sanoat, fabrika, zavod, xotin-qizlar, gaz, kimyo, og‘ir sanoat, yengil sanoat, qurilish materiallari, elektr stansiyalar, un zavodlari, oziq-ovqat. to‘qimachilik, kadrlar siyosati, kon sanoati.*

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda iqtisodiy islohotlar tufayli mamlakat sanoat ishlab chiqarish tizimida tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilib, zamonaviy sanoat taraqqiyoti uchun keng yo‘l ochildi. Iqtisodiy hayotni demokratlashtirish, soha siyosiy tizimida tub o‘zgarishlar yasash, boshqarishda yangi shaklni tashkil etish va sanoat korxonalariga egalik qilishning turli shakllarini tarkib toptirish, soha kadrlarini tayyorlash borasida qator muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Sanoat sohasidagi siyosatni samarali amalga oshirish, sanoatni innovatsion asosda tashkil etish, tashqi bozorlarda yuqori talabga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim” [1; 134-b].

Hozirgi kunda qo‘yilayotgan murakkab vazifalarning ijobiy hal etilishi ko‘p jihatdan uning tarixiga ham bog‘liq hisoblanadi. Shuning uchun soha tarixini chuqur o‘rganib, har tomonlama chuqur tahlil qilib, umumlashgan xulosalar yordamida ertangi kun istiqbollarini belgilash O‘zbekiston tarixi fanining dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Jumladan, sanoat sohasining 1925 – 1941-yillardagi tarixi eng murakkab va shu bilan bir qatorda qiziqarli mavzulardan biri sifatida e’tirof etiladi. Bu davrda sovet davlati sanoat sohasida ham “sotsialistik qurilish” g‘oyasini ilgari surib, tizim faoliyatini yo‘lga qo‘yishida jiddiy o‘zgarishlar qilindi. Ammo bu o‘zgarishlar Markaz manfaatlariga muvofiq amalga oshirilib, O‘zbekistonning paxta xom ashyosi

bazasi sifatida ixtisoslashuvi jarayoni yanada kuchaytirildi. Sanoat qurilishidagi zarur nisbatlar buzilishi, ma'muriy buyruqbozlik, noaniq topshiriqlar, mutaxassis kadrlar tanqisligi, besh yilliklarda asossiz va amalda bajarib bo'lmaydigan vazifalarning belgilanishi kabi holatlar soha faoliyatida salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4058-sonli Qarori, 2019-yil 10-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4105-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-iyuldagi "Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6244-sonli Farmonlari soha faoliyatini takomillashtirishga oid meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Istiqlol tufayli O'zbekiston tarixining har bir davri va sohalarini chuqur ilmiy tahlil etish imkoniyati vujudga keldi. Jumladan, sovet davrida O'zbekiston siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy hayoti tarixini keng qamrovli o'rganib, yakuniy xulosalar chiqarish dolzarb masalalardan biriga aylandi. O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosati, uning maqsadi, mohiyati hamda tarixiy ahamiyati sovet davri adabiyotlarida to'liq o'z aksini topmadi.

30-40-yillarida O'zbekistonda sanoati sohasining yo'lga qo'yilishi va rivojlanishi masalalariga bag'ishlangan bir qator maqolalar ham e'lon qilindi. D.Dvornikovning maqolasida ko'mir sanoati kadrlarini tayyorlash masalasi tahlil etilgan. A.M.Lebedinskiy, E.Kogan, A.A.Isaakiyanning maqolalarida O'zbekistonda og'ir sanoatning yo'lga qo'yilishi sohasidagi yutuqlar va muammolar xususida so'z yuritiladi. A.M.Lebedinskiyning maqolasida esa O'zbekiston og'ir sanoatining dastlabki 10 yillik tarixi yoritiladi[2; 24-b].

O'zbekiston sanoat tarixi tarixshunosligida XX asrning 50-60-yillarda arxiv manbalaridan, ilmiy adabiyotlardan keng foydalanib yaratilgan risola va monografiyalar paydo bo'ldi. Bu davrda, asosan, urushdan vayron bo'lgan xalq

xo'jaligini tiklashga kirishilib, sanoat tarixini o'rganish yuzasidan yaratilgan ishlarda sohaning turli tarmoqlari faoliyati obyektiv yoritilishi kuzatila boshlandi. Shuningdek, sanoat sohasi tarixi alohida maxsus o'rganilib, fundamental asarlar ham vujudga keldi.

O'zbekistonda 30-yillarda ham sanoat qurilishi sur'atlarini asossiz ravishda jadallashtirish tendensiya davom ettirildi. Respublika iqtisodiyotida mamlakatning asosiy paxta bazasi sifatida ixtisoslashuvi yanada kuchaytirildi. Shuningdek, to'qimachilik, mashinasozlik, energetika, kimyo sanoati, ipakchilik, uzumchilik va umuman qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini ko'paytirish vazifalari qo'yildi. O'zbekistondagi sanoat korxonolari asosan Markaz manfaatlariga muvofiq tashkil etilib, mintaqa aholisi uchun zarur bo'lgan zavod va fabrikalar qurish masalasi hech kimni qiziqtirmadi.

Urushdan oldingi besh yilliklar davrida sanoatning xalq xo'jaligida egallagan salmog'i 1928-yildagi 43 foizdan 1940-yilda 70 foizga yetdi. Ammo sanoat Markaz tasarrufida edi. Masalan, 30 yillarning o'rtalarida O'zbekistondagi korxonalarining 90 foizi ittifoq tasarrufida bo'ldi.

Ikkinchi besh yillikda 189 ta sanoat korxonasi ishga tushirildi. Bu davrda O'zbekiston og'ir sanoati uchun 365,7 mln rubl yoki xalq xo'jaligiga sarflash rejalashtirilgan mablag'ning 17,6 foizi mazkur tarmoqqa ajratildi [3; 66-b].

Bu davrda Farg'onadagi yigirish-to'qish fabrikasi, Xavdog', Uchqizil neft konlari, Toshkent matbaa kombinati, Qo'qon superfosfat zavodi, Buxorodagi issiqlik elektr stansiyasi, Toshkent lak buyoq zavodlari barpo etildi. Tashkil etilgan sanoat korxonalarining ko'pchiligi O'zbekiston uchun mutloqo yangi edi. Ip, gazlama, ipak yigiruv, tikuvchilik, mo'ynachilik, poyafzal, qishloq xo'jaligi mashinasozligi sohalariga oid zavod va fabrikalar shular jumlasidandir. Ammo sanoat korxonolari O'zbekiston viloyatlari bo'yicha joylashtirishda nomutanosibliklar mavjud edi.

1933-yili O'zbekiston sanoat korxonalarining 40 foizi Toshkent okrugi, 31,4 foizi Farg'ona, 11,1 foizi Zarafshon, 6 foizi Qashqadaryo, 5,3 foizi Surxondaryo, 6,4 foizi Xorazm okrugiga to'g'ri keldi [4; 51-b].

Uchinchi besh yillikda sanoat sohasiga 114,7 mln rubl sarflash ko'zda tutilib, 134 ta yangi sanoat korxonasi ishga tushirildi. Xo'jayli, Qo'ng'iroq, Krasnogvardeyskiy, Chinoz, Xiva paxta tozalash zavodlari, Toshkent to'qimachilik kombinatining ikkinchi navbat, Buxoroda tikuvchilik fabrikasi, Buxoro va Namanganda vino ishlab chiqarish zavodi, Mo'ynoq baliq konserva kombinati, Samarqandda maxorka fabrikasi, Quvasoy g'isht zavodi shular jumlasidandir. Ko'rilgan tadbirlar natijasida O'zbekistonda 1937-yil yirik sanoat korxonalari soni 948 ta bo'lsa, 1940-yil ular soni 1445 ta bo'ldi. Bu yillarda sanoatda yalpi mahsulot ishlab chiqarish 1487,7 mln rubldan 2189,9 mln rublga kupaydi.

1940-yil O'zbekiston sanoat korxonalarining viloyatlar bo'yicha joylashuvida aksariyat sanoat korxonalari Toshkent, Farg'ona va Samarqand hududida faoliyat yuritgan bo'lsa, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm hududlarida sanoat korxonalar sonining kamligi bilan izohlanadi [5; 167-b].

Yirik sanoat korxonalarining hududlar kesimida joylashuvidagi nomuvofiqliklarining sababi sifatida bizningcha:

Birinchi, hududlarda yashagan aholi soni bilan bog'liq xolda, aholi zich yashagan hududlarda sanoat korxonalari ko'proq tashkil etildi;

Ikkinchi, O'zbekiston hududida 1925-yilga qadar ham sanoat korxonalari mavjud edi, Buxoro va Xorazmdagi sanoat korxonalarining tashkil etilishidagi sustkashlik monarxiya tizimining asoratlari sifatida izohlansa, Turkiston o'lkasida yangi sanoat korxonalarining tashkil etilishida imkoniyatlar mavjud bo'lib, Farg'ona va Toshkent okruglarida amalda sanoat korxonalarini qurish tezkorlik bilan amalga oshirildi;

Uchinchi, Markazning manfaatlari, qolaversa o'lka boyliklarini tashib ketish borasida temir yo'llar mavjud bo'lgan hududlarda sanoat korxonalarining tashkil etilishi ayni muddao edi. Masalan asosiy paxta xom ashyosini yetishtirib beradigan Surxondaryo va Qashqadaryoda yirik paxta tozalash zavodlari 1925-1940-yillarda deyarli qurilmadi, lekin bu hududlar asosiy paxta yetishirib beradigan viloyatlar edi;

To‘rtinchidan, infrastruktura ya’ni elektr energiyasi, yo‘l, shuningdek, kadrlar tayyorlash masalasida o‘rta maxsus hamda oliy o‘quv yurtlarining tashkil etilishi ham hududlardagi sanoat korxonalarining soniga qarab belgilandi.

Beshinchidan, Farg‘ona, Toshkent va Samarqand viloyatlarida azaldan hunarmandchilik rivojlangan.

Ikkinchi besh yillik davrda elektr-stansiyalar soni ko‘paydi. 1934-yil Qodiriya GES, Bo‘rjar GES, Quvasoy GES elektrstansiyalari ishga tushirilib, Farg‘ona Markaziy elektrostansiyasi kengaytirildi. 1934-yil 25-sentabrda O‘zbekiston energetika tizimining tashkiliy asosi – “O‘zbekenergo” energetika boshqarmasi tuzildi.

1924-1925-yillarda O‘zbekistonda elektrstansiyalarning quvvati 8,5 ming kVt bo‘lsa, 1940-yil bu ko‘rsatgich 171,3 ming kVt bo‘ldi.

Elektr stansiyalar quvvati O‘zbekistonning turli viloyatlarida turlicha bo‘ladi. 1940-yili Toshkent va Farg‘ona viloyatlari bu masalada eng oldingi o‘rinda turdi. Masalan, 1940-yil 481,6 mln kvt elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo‘lsa, shuning 167,7 mln kvt Toshkent viloyati, 103,1 mln kvt Toshkent shahri hamda 103,8 mln kvt Farg‘ona viloyati hissasiga to‘g‘ri keldi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish bo‘yicha eng oxirgi o‘rinlarda Surxondaryo viloyati (9,9 mln kvt) Qaraqalpog‘iston ASSR (3,6 mln kvt) Qashqadaryo viloyati (3,1 mln kvt) Xorazm viloyati (2,3 mln kvt) ga to‘g‘ri keldi [6; 65-b].

Sanoat sohasida yoqilg‘i sanoati yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Besh yillik rejalarida O‘zbekiston hududidan tabiiy resurslarni qidirib topish va ularni sanoat usulida ishlab chiqarish eng asosiy masalalar qatoridan joy oldi.

1933-yil geolog I.P.Puyev tavsifiga ko‘ra, Surxondaryoning Hovdak maydonida birinchi qidiruv ishlari boshlab yuborildi. 1934-yil 6-fevralda 158 metr chuqurlikdan neft topilib, sutkasiga 100 tonna neft olish boshlandi. Shu bilan 14-sentabrda akademik I.M.Gubkinning Surxondaryo okrugi gazetasida “O‘rta Osiyo neft uchun” nomli maqolasi e‘lon qilindi. Maqolada shunday deyiladi: “Hovdak faqat neft chiqqanligi uchun mashhur bo‘lib qolmasdan, balki u O‘rta Osiyo nefti tarixida yangi sahifa ochdi”. Hovdak nomidan so‘ng Uchqizil,

Kakayda, Lalmikor, Jayroxonada Yangi neft konlari aniqlandi. Bu konlarni ishga tushirish uchun “Varoshilov neft tresti” tashkil qilindi.

Boshqa viloyatlarda ham neft ishlab chiqarish ko‘payib bordi. 1934-yil SHO‘rsuv neft konining birgina 16 qudug‘idan 26,7 ming tonna neft olindi [7; 134-b].

O‘zbekiston neft sanoatiga 1938-yili 45 mln rubl, 1939-yil 60 mln rubl sarflandi. Shu yili 900 ming tonna neft ishlab chiqarildi.

Shu tariqa O‘zbekistonda neft ishlab chiqarish ko‘paytirib borildi. 1924 – 1925-yilda respublikada 6 ming tonna neft ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 1940-yil bu ko‘rsatgich 119 ming tonna bo‘ldi. 119 ming tonna neftning 22 ming tonnasi Farg‘ona, 15 ming tonnasi Andijon, 82 ming tonnasi Surxondaryo viloyati hissasiga to‘g‘ri keldi.

Tog‘-kon sanoati ham so‘zsiz bu davrda tinimsiz rivojlantirib borildi. Toshko‘mir qazib chiqarish va undan sanoatda foydalanish yildan yilga oshirib borildi. Masalan, 1934-yil 1500 ming rubl, 1934-yil 2380 ming rubl, 1935-yil 3970 ming rubl, 1936-yil 5925 ming rubl, 1937-yil 8000 ming rubllik toshko‘mir ishlab chiqarildi. 1933-yildan 1930-yilga qadar toshko‘mir ishlab chiqarish 570 foizga ko‘paydi.

O‘zbekistonda ko‘mirni sanoat ulushida qazib olish 1930-yillarning oxiridan boshlandi. 1932-1937-yillarda O‘zbekistonda toshko‘mir ishlab chiqarishda o‘shish jarayoni kuzatildi. Masalan, Norin №1 shaxtasida toshko‘mir ishlab chiqarish 1933-1937-yillarda 100 ming tonnadan 700 ming tonnaga, Shurab №8 shaxtasida toshko‘mir ishlab chiqarish shu yillarda 100 ming tonnadan 500 ming tonnaga ko‘paydi [9; 134-b].

O‘zbekistonda boy xom ashyo manbalari bo‘lishiga qaramay, XX asrning 30-yillariga qadar kimyo sanoati deyarli bo‘lmagan. Ohak kuydirish, o‘simlik bo‘yog‘i olish, oltingugurt ishlab chiqarish, ishqoriy moddalar tayyorlash, savdogarlik bilan shug‘ullangan bir qancha kichik korxonalar faoliyat olib borgan.

Zamonaviy kimyo sanoatining vujudga kelishi Farg‘ona vodiysidagi Sho‘rsuv oltingugurt konining ishga tushirilishi bilan boshlandi. 1932-yildan Chirchiq elektr kimyo kombinati qurilishi boshlanib, bu korxonada 1940-yil oktabrdan mahsulot bera boshladi. Shu yili respublikaning jami sanoat mahsuloti hajmida kimyo sanoati hissasi 0,8 foizga teng bo‘ladi, bu sanoat sohada band bo‘lgan ishchilar esa 1,5 foizini tashkil etdi.

O‘zbekistonda sanoatning mashinasozlik sohasining asosan qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq tarmoqlarini rivojlantirishga e‘tibor berildi. O‘rta Osiyodagi eng yirik sanoat korxonalaridan biri bo‘lgan. “Tashselmash” zavodi 1932-yil 1-mayda ishga tushirilib, 1934-yilda qurilish montaj ishlari tugallandi va mazkur korxonada ittifoqning og‘ir sanoat korxonalarini ro‘yxatga kiritildi. Bu zavod O‘zbekiston mashinasozlik sanoatining to‘ng‘ich korxonasi edi. 1940-yil O‘zbekistonda mashinasozlik sohasida faqat qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq texnikalar ishlab chiqildi, ya‘ni, 507 dona traktor seyalkasi 1903 dona traktor kultivatori, 5 dona paxta terish mashinasi ishlab chiqariladi [10; 12-b].

1932-yilda “Uzbekgidrostroy” tresti tomonidan irrigatsiya mashina va mexanizmlari ta‘mirlanadigan “Irmash” zavodi tashkil etilib, bu korxonada 1935-yildan O‘rta Osiyo ekskavator remont zavodiga aylantirildi.

Mashinasozlik sanoatining muhim tarmog‘i avtomobilsozlik sohasiga dastlabki qadamlar 1939-yil Toshkent avtotra‘mirlash zavodining ishga tushirilishi bilan boshlandi.

Asosiy qurilish materiali hisoblangan sement bu davrda asosan Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida ishlab chiqarildi. 1932 ming tonna, 1937-yil 138 ming tonna 1940-yil O‘zbekiston bo‘yicha 267,3 ming tonna sement ishlab chiqarildi. 1940-yil sementning 117,2 ming tonnasi Toshkent, 150,1 ming tonnasi Farg‘ona hissasi to‘g‘ri keldi.

Yana bir qurilish materiali, ya‘ni pishiq g‘isht ishlab chiqarilishi viloyatlar bo‘yicha taqsimlanganda ham o‘rtadagi tafovut yaqqol namoyon bo‘ladi.

Masalan 1925-1926-yillarda O‘zbekistonda 12,9 mln dona g‘isht ishlab chiqarilib, uning 6,9 mln donasi Toshkent shahri, 2,6 mln donasi Samarqand, 1

mln donasi Andijon, 1,6 mln donasi Toshkent viloyati hisobiga to‘g‘ri keldi. Boshqa viloyatlarda 1940-yilda bu soha yo‘lga qo‘yilmagan. O‘zbekiston bo‘yicha 302,3 mln dona g‘isht ishlab chiqarilib, shuning 98,8 mln donasi Toshkent viloyati, 8,1 mln Toshkent shahri hisobiga to‘g‘ri keldi. Bu ko‘rsatgich Buxoroda 9,6 mln dona, Qashqadaryoda 3,4 mln dona to‘g‘ri keldi. Xolbuki, 1939-yil aholi ruyxati bo‘yicha Toshkent viloyati aholisi 648 ming kishi, Buxoro viloyati 481 ming kishi, Qashqadaryo viloyati 460 ming kishidan iborat edi.

Ayrim xorijlik tadqiqotchilar tomonidan SSSRda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatiga ijobiy baho berilib, sanoat ishlab chiqarishning mutlaq hajmlari bo‘yicha XX asrning 30-yillari oxirida SSSR dunyoda AQShdan keyin 2-o‘rinni egallaganligi ta’kidlanadi. SSSRda sanoat texnologiyasi yaratilishi mumkinligi, shuningdek, G‘arbdan farqli o‘laroq SSSRda bozor iqtisodiyoti va fuqarolik jamiyati yo‘q edi.

V.Lelchuk “SSSRni sanoatlashtirish: tarixi, tajribasi, muammolari” nomli risolasida SSSRdagi sanoatlashtirish jarayoniga yuqori baho berib, quyidagi fikrlarni bildiradi:

Birinchidan, SSSRda sanoat o‘zgarishi ikkinchi darajali xarakterga ega edi. Rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ancha kechroq amalga oshirilganligi sababli, yangi qurilgan va rekonstruksiya qilingan korxonalarda chetdan eksport qilinadigan asbob - uskunalar va texnologiyalar, shuningdek, mehnatni tashkil etish usullari qo‘llanilgan.

Ikkinchidan, ishlab chiqarishning sanoat turi dastlab iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida shakllanishi mumkin. Sanoatlashtirishda og‘ir va mudofaa sanoatining ustuvor rivojlanishiga e’tibor qaratildi.

Uchinchidan, sanoat texnologiyasi yollanma mehnatdan ortiqcha qiymat olish uchun yaratilgan va kapitalistik ekspluatatsiya vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Stalinistik model, asosan, sotsialistik bayroq ostida dastlabki sanoat kapitalizmini qayta ishlab chiqardi.

To‘rtinchidan, 70-yillarga qadar sovet jamiyatining muhim xususiyati uning kelajakka intilishi, qo‘rquv va dahshatga dosh berishga tayyorligi, o‘z

farzandlari va umuman kelajak avlodlari uchun porloq kelajak uchun qat'iy intizom va g'ayriinsoniy texnologiyalarga bo'ysunish edi".

Xullas, O'zbekistonda urushdan oldingi yillarda ham sanoat sohasini jadallashtirish tendensiyasi davom ettirilib, respublika iqtisodiyotining sobiq Ittifoqning asosiy paxta bazasi sifatidagi ixtisoslashuvi yanada avj oldirildi. Bu davrda O'zbekiston xalq xo'jaligida sanoat ishlab chiqarish salmog'i yildan yilga oshib borgan bo'lsada, ammo eng asosiy sanoat korxonalari ittifoq tasarrufida bo'lib, u turdagi korxonalarining salmog'i barcha sanoat korxonalarining 90% ni tashkil qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Esanova, N. P. (2024). MAIN FACTORS OF TEXTILE INDUSTRY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN (1991-2021 Years). *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(9), 5-13.
2. Esanova, N. (2024). QASHQADARYO SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK MEXANIZMINING YARATILISHI. *Interpretation and researches*.
3. Pulatovna, E. N. (2024). UZBEKISTAN'S PLACE IN INTERSTATE INDUSTRY AND TRADE EXHIBITIONS (1991-2021 YEARS). *International journal of artificial intelligence*, 4(07), 342-343.
4. Sherozovich, M. B., & Shuhratovna, M. N. (2024). THE EMERGENCE OF THE GAS-SULFUR INDUSTRY IN UZBEKISTAN AND ITS DEVELOPMENT HISTORY (IN THE EXAMPLE OF KASHKADARYA REGION). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(5), 217-220.
5. Маматкулов, Б. (2024). Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yengil sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, kadrlar tarkibini shakllantirish jarayonlari (1925-1950-yu). *Общество и инновации*, 5(5), 211-218.
6. Mamatqulov, B. S. (2024). O 'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAHLIL VA

- OQIBATLAR (XX-ASRNING 30-40 y.). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(2), 33-39.
7. Jumayeva, S. S. (2024). MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIDA ALLOMALAR MEROSINING TUTGAN O'RNI. *GOLDEN BRAIN*, 2(20), 64-69.
8. Suyunovna, J. S. (2023). THE IMPORTANCE OF GENDER EQUALITY IN THE EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(9), 114-117.
9. Suyunovna, J. S. (2021). MA'NAVIY YUKSALISH YO'LIDAGI TAHDIDLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 186-194.
10. Sherozovich, M. B., & Shuhratovna, M. N. (2024). THE EMERGENCE OF THE GAS-SULFUR INDUSTRY IN UZBEKISTAN AND ITS DEVELOPMENT HISTORY (IN THE EXAMPLE OF KASHKADARYA REGION). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(5), 217-220.
11. Маматкулов, Б. (2024). Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yengil sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, kadrlar tarkibini shakllantirish jarayonlari (1925-1950-yu). *Общество и инновации*, 5(5), 211-218.
12. Mamatqulov, B. S. (2024). O 'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAHLIL VA OQIBATLAR (XX-ASRNING 30-40 y.). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(2), 33-39.